

PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVGA DOIR TADQIQOTLAR

Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o'qituvchilari,

E-mail: nazokatxaitbayeva@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10664614>

Annotatsiya: Ushbu tezisda Psixolingvistikaga oid ma'lumolar hamda tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan. Psixolingvistika (angl.psycholinguistics) tilshunoslikning nutq jarayonini nutq akti va so'zlovchi (yozuvchi), axborotni yuzaga keltiruvchi shaxs maqsadi va mazmuni orasidagi munosabat nuqtai nazaridan o'rganuvchi sohadir.

Kalit so'zlar: Metalingvistika, nutq, lingvistik idrok, psixologiya, reflektor, eksperiment.

"Psixolingvistika odamlarning tildan foydalanishiga imkon beradigan aqliy mexanizmlarni o'rganadi. Bu ilmiy intizomdir, uning maqsadi tilni ishlab chiqarish va tushunish usulining izchil nazariyasidir", deydi Alan Garnxem "Psixolingvistika" kitobida. Tilshunoslikda so'zlovchining ijtimoiy ongi, ijtimoiy hayoti va tilning mazmun tomoni orasidagi aloqalarini o'rganuvchi sohasidir. Psixolingvistika psixologiya va lingvistikani o'zida namoyon qilish barobarida, nutqni idrok qilish, tilni egallash qonuniyatlari (bolalarda nutqning rivojlanishi, ikki tillilik) lingvistik jarayonlarning bilishga munosabati kabi muammolar bilan shug'ullanadi. Metalingvistika so'zining birinchi ma'nosi ham aynan psixolingvistikaga to'g'ri keladi. "Psixolingvistika" termini, qoida bo'yicha E.R.Daybold ta'kidlaydiki, "inson tili va verbal xulqning muayyan aspektlariga nazariy va eksperimental yondashuvlarning ayrim aralashmasini anglatadi.

Psixolingvistika atamasi amerika olimlari tomonidan ilmiy hayotga olib kirildi. Ilk marta bu atama 1946-yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan "Til va psixolingvistika" nomli maqolasida qo'llanildi. Lekin psixolingvistikaning maqomi keng ilmiy jamoatchilik e'tirof etadigan darajada belgilanmagan edi. Psixolingvistik o'tgan asrning 50-yillarida shakllangan bo'lsa ham, lekin uning ildizi uzoq davrlarga – tilshunoslikda anchadan buyon davom etib kelayotgan psixologik yo'nalishga borib taqaladi. Demak, psixolingvistika XIX asr tilshunosligida hukm surgan psixologik yo'nalishning mantiqiy davomidir. Shuning uchun ham, avvalo, psixolingvistikaning ildizi bo'lgan tilshunoslik nazariyasidagi psixologik yo'nalish haqida fikr yuritishga to'g'ri keladi.¹

Psixolingvistika tilshunoslikning nutq jarayonini Psixolingvistika idrokning "reflektor" nazariyasiga tayanib, nutqni idrok qilishni miyaga informatsiya "quyilishi"ning bir tomonlama jarayoni sifatida qaraydi. Biz, reflektor nazariyasiga muvofiq, nutq idrok qilinishini xuddi nutqni harakatga keltiruvchi motor zvenosining majburiy ishtirokida sodir bo'ladigan faol dinamik jarayon sifatida qarashni tavsiya etamiz. Psixolingvistika nutq identifikatsiyasi (aynan o'xshatish, tenglashtirish)ni darajalangan tizim natijasi sifatida qaraydi. Bizning nuqtai nazarimizda, nutqning idroki va tushunulishi-darajalanishning natijasi emas, aksincha, vujudga kelgan darajalanish faol o'xshatish mexanizmining harakati natijasidir. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab

¹ Сахарный Л.В. Введение в психоллингвистику. –Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1989. –С.6.

chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Psixolingvistikaning asosiy tadqiqot **obyekti** nutqiy faoliyat subyekti bo'lgan shaxs, til egasidir. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan A.A.Zelevskaya psixolingvistikaning vazifasini "tilning amal qilinishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish" bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi². Psixolingvistika fanining **obyekti** – u o'rganadigan individual obyektlar majmuyidan iborat. Turli fanlarda umumiy, bir tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin. Biroq ularning predmeti bir-biridan farq qilishi, ya'ni ayni obyektga bo'lgan qarashi turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, inson ham tibbiyot, ham psixologiyaning tadqiqot obyekti sanaladi.

References:

1. А.Р. Лурия “Письмо и речь нейролингвистический исследования” Москва: АCADEMA, 2002. – С. 57.
2. Almatov T., Yadgarov Q., Pochayeva G., “O'zbek tili o'qitish metodikasi”. O'quv qo'llanma. Jizzax 2006 y.
3. Boboxonova Diloromning Psixolingvistika fanidan (Ma'ruzlar matni), Namangan, 2019-y.
4. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi “O'qituvchi”, – T., 2003. – B. 44.
5. Белянин В. П. Психоллингвистика. –М., 2004. –С. 8.
6. Бурлакова М.К. Речь и афазия. Москва: Медицина, 1997. –С. 280.
7. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. T., 2018. –B. 44.
8. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. –Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., –Istiqol, 2006. –B. 57.
9. Фрумкина Р.М. Психоллингвистика. - М., 2001. – С. 26.
10. Глухов В.П. Основы психоллингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. - М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 15.
11. Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психоллингвистики: Учебное пособие. –М.: Лабиринт, 2001. – С. 4.
12. Xudaybergenova G.«Eksperimental psixologiyasi» bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi. Nukus, 2012.

² Залевская А.А. Введение в психоллингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. –М., 1999. –С.25.